



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-fevral

67-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali jismoniy shaxslar harakatlanishi hamda ular tomonidan tovar va transport vositalarini olib o‘tish jarayonlarini yanada soddalashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi 44-son qarori ijrosi haqida”gi 65-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali jismoniy shaxslar harakatlanishi hamda ular tomonidan tovar va transport vositalarini olib o‘tish jarayonlarini yanada soddalashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi 44-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 65-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 65-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 44-son qarori bilan:
Quyidagilar:
“Elektron navbat” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalangan holda, avtotransport vositalarining Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktidan harakatlanish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;
Jismoniy shaxslarning Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktidan harakatlanishida “Fast-track” xizmatidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga;
“Elektron navbat” avtomatlashtirilgan axborot tizimi birinchi navbatda joriy etiladigan Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
belgilanishicha, 2025-yil 1-maydan:
jismoniy shaxslar uchun “Fast-track” xizmati mazkur qarorga 3-ilovada qayd etilgan chegara o‘tkazish punktlarida amaliyotga joriy etilishi;
avtotransport vositalari uchun “Elektron navbat” avtomatlashtirilgan axborot tizimi mazkur qarorga 3-ilovada qayd etilgan chegara o‘tkazish punktlarida, respublikaning qolgan chegara o‘tkazish punktlarida esa avtotransport vositalarining harakatlanish oqimidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich joriy etilishi;
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari ikki oy muddatda Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi bilan kelishgan holda, mazkur qarorga 3-ilovada qayd etilgan chegara o‘tkazish punktlari yaqinida avtoturargohlar tashkil etilishi uchun bo‘sh turgan va zaxiraga olingan yer maydonlarini belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov